



### “NASOYIM UL-MUHABBAT” TAZKIRASIDA AYOL AVLIYOLAR OBRAZINING BADIY-TASAVVUFİY TAHLILI

**O'ng'arova Komila Murot qizi,**  
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti  
E-mail: [Komilaongarova@gmail.com](mailto:Komilaongarova@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19839607>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida keltirilgan orifa va valiya ayollar obrazlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasavvufiy komillik yo'lida jins tushunchasining ahamiyati, ayol zotining ma'naviy yuksakligi va ularning buyuk shayxlarga ustozlik qilgani masalalari yoritilgan. Asardagi Fotima binti Musanno, Fotima Nishopuriya kabi timsollar misolida ayollarning ilm, taqvo va karomat borasidagi yuksak maqomi ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, orifa, valiya, zikr, ibodat, zohidlik, taqvo, karomat, kanizak, shavq.

**Аннотация.** В данной статье анализируются образы женщин-суфиев (орифа и валия) в произведении Алишера Навои «Насойим ул-мухаббат». В исследовании освещаются вопросы гендерного равенства в духовном совершенстве, высокого статуса женщин в суфизме и их роли в качестве наставниц великих шейхов. На примере таких личностей, как Фатима бинти Мусанно и Фатима Нишопурия, научно обосновывается превосходство женщин в знаниях, благочестии и чудесах (карамат).

**Ключевые слова:** суфизм, орифа (познавшая истину), валия (святая), зикр, поклонение, аскетизм, благочестие, карамат (чудо), канизак (невольница), шавк (духовное стремление).

**Abstract.** This article analyzes the figures of female Sufis (orifa and valiya) depicted in Alisher Navoi's hagiographic work "Nasoyim ul-muhabbat". The research explores the significance of gender in the pursuit of spiritual perfection, the spiritual eminence of women, and their roles as mentors to eminent sheikhs. Using examples of such figures as Fatima binti Musanno and Fatima Nishopuriya, the study provides a scholarly foundation for the high status of women in terms of knowledge, piety, and miracles (karamat).

**Keywords:** Sufism, orifa (gnostic woman), valiya (holy woman), dhikr, worship, asceticism, piety, karamat (miracle), handmaid, shawq (spiritual longing).

**Kirish.** O'zbek klassik adabiyotining buyuk namoyondasi Alisher Navoiy ijodida ayol zotiga ehtirom, uning jamiyatdagi ma'naviy o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, adibning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi valiya ayollarga bag'ishlangan fasl shunchaki biografik ma'lumotlar to'plami emas, balki chuqur ijtimoiy-tarbiyaviy va estetik mazmunga ega ma'naviy xazinadir. Mazkur asar o'rta asrlar islom sharqida ayol kishining oila davrasida, balki jamiyatning intellektual va ma'naviy hayotida qanchalik yuksak mavqega ega bo'lganini ko'rsatib beradi. Ular shunchaki taqvodor emas, balki o'z davrining yetuk donishmandlari, tasavvuf nazariyotchilari va murabbiylaridir. “Nasoyim ul-muhabbat” asari jamiyatning axloqiy asosi bo'lgan ayolning ma'rifati butun bir avlod tarbiyasiga tas'sir etishini isbotlaydi.



“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida valiyalar haqidagi ma’lumotlar “Erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri” deb boshlanadi va ushbu mazmundagi bayt keltiriladi: “Agar ayollar biz aytgandek bo’lsalar, erkaklardan afzaldirlar. Quyoshning muannas ism ekanligi unga ayb emas, oyning muzakkar ism ekanligi unga faxr emas”[1:478]. Bu baytlar Alisher Navoiyning ayol zotiga, xususan, kamolot yo’lidagi orifalar munosabatini ochiqalaydi. Ya’ni ayollar taqvo, ilm yo’lida, tavhidda sobit, nafs bilan kurashda g’olib bo’lsalar erkaklardan ham baland maqomga erisha oladilar. Yana Navoiy quyosh va oy ramzlari bilan arab tili grammatikasiga oid nozik qiyosni keltiradi. Arab tili lisoniy qoidalariga ko’ra quyosh — shams so’zi muannas(ayol jinsi) xarakteriga ega bo’lsa-da, olamning barcha yoritkichlaridan ustun. Oy so’zi o’zining muazakkir(erkak jinsi) nomi bilan ham quyosh nuriga muhtojdir.

**Adabiyotlar sharhi.** Navoiyning ushbu asari VII asrdan XV asr oxirigacha yashagan 770 nafar valiy, jumladan, erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar hayotini qamrab oladi. Asarning ilmiy-tanqidiy matni turkiyalik olim Kamol Eraslon tomonidan yaratilgan bo’lsa, o’zbek adabiyotshunosligida Islomjon Homidxonov tomonidan asarning qo’lyozma nusxalari va tanqidiy matni yuzasidan keng ko’lamli tadqiqotlar olib borilgan. G’arb sharqshunosligida ayol valiyalar masalasi A. Shimmelning tadqiqotlarida alohida o’rin tutadi. Xususan, uning “Janon mening jonimda” asarida Fotima binti Musanno kabi orifalarning hayoti va ularning Muhyiddin ibn al-Arabiy kabi buyuk shayxlarga ma’naviy ustozlik qilgani tahlil qilingan. Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida Fotima Nishopuriya kabi orifalarning Boyazid Bistomiy va Zunnun Misriy kabi ma’rifat sultonlari bilan bir safda turishi, hatto ularning hayratiga sabab bo’lgan ilmiy salohiyati bayon etiladi. Maqolada keltirilganidek, Imom Yofi’iy kabi tarixchi olimlarning asarlari ham “Nasoyim ul-muhabbat” uchun muhim manba bo’lib xizmat qilgan. Bu asarlar orqali ayol kishining tasavvufda nafaqat zohidlik, balki Qur’on va hadis ilmlari, shuningdek, "kashf" va "shuhud" darajalarida yuksak maqomga erishgani isbotlangan.

**Tahlillar va natijalar.** Vahdat ul-vujud nazariyasi asoschisi Shayx ul-akbar Muhyiddin ibn al-Arabiy ayol avliyo Fotima binti Musannoning shogirdi bo’lgan. Ibn Arabiy Fotima binti Musanno o’zini ko’plab valiya xizmatida bo’lishni xohlovchilar orasidan tanlanganligini bayon qiladi: “Barcha eldinki aning xidmatig’a yetarlar erdi, meni ixtiyor qilib erdi. Der erdiki, men aningdek kishi ko’rmaydurmen. Qachonki, mening qoshimg’a kelur, o’zin andoq jam’ qilib kelurki, tashqari hech nima qolmas va chiqarda ham andoq chiqarki, ichkari hech nima qolmas”. [1:489] Shayx yillardir uning xizmatida bo’lganini, u vaqtlarda valiya to’qson besh yoshda bo’lishiga





qaramay yuzining nurli hamda tozaligidan o'n to'rt yoshli qiz kabi ko'ringani va bu sababdan ustoz yuziga tik boqishdan uyalganini xotirlaydi. Shuningdek, hikoyatda Shayx Muhyiddin ibn al-Arabiy va Fotima binti Musonno bir-biriga bo'lgan murojaatlarda "Ey farzand" yoxud "Ey ona" kabi xitoblar ular orasidagi faqatgina ustoz-shogird emas, balki ma'naviy ona va farzand munosabatlari bo'lganini anglatadi. Rivoyatlarga ko'ra Fotima binti Musannoning xizmati uchun Fotiha surasi berilgan. Bu karaomat dalili sifatida Navoiy quyidagi voqeani keltiradi. Bir kuni Shayx valiya qoshida o'tirganida bir zaifa kelib erim falon shaharga ketgan edi, u yerda boshqa ayolga uylanmoqchi ekan deb shikoyat qilibdi. Shunda orifa hozir Fotiha surasini yuboraman, u uning erini olib keladi deb javob beradi va Fotiha surasini o'qiy boshlaydi. Muhyiddin ibn al-Arabiyning guvohlik berishicha zohida suraning ma'naviy quvvatidan tirik bir inson shaklini yaratadi va unga ayolning erining topib kelishini buyuradi. A. Shimmelning "Janon mening jonimda" asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra "O'ta kambag'al bo'lishiga ramay Fotima binti Musanno juda quvnoq hayot kechiradi. Ba'zan qo'liga tanbur olib Allohning marhamatini jo'shib kuylaydi"[2:55]. "Nasoyim ul-muhabbat"dagi uning ushbu fikrlari ham bunga dalildir: "Tengri aning shuhudidur va ko'zi anga nozirdur va bir turfati ul-ayn g'oyib bo'lmas, bu el nechukki aning muhabbati da'vosin qilurlar va ayturlar, ayo uyalmaslar. Muhib qurbi muqarriblardan ortuqdur, pas nega yig'larlar"[1:489] Ya'ni Allohni sevaman deb da'vo qilib, ammo uning zikri va diydoridan shodlanmay g'amga botgan odamlar uni haytratlantiradi. Valiya zikr va ibodatlarda chinakam baxtni his qilgan.

Demak, ayol valiyalar faqatgina ayollarni emas, ibn Arabiy kabi buyuk shayxlarni ham tarbiyalagan hamda ularga ma'naviy ona bo'lgan. Zohidlik yo'lida jins ahamiyatli emas. Allohga ham zohiran, ham botinan bog'langan ayol ham Allohning do'stlari qatorida bo'ladi va bunga dalil sifatida ularga karomatlar beriladi.

Alisher Navoiy yana bir eran Fotima Nishopuriyani Xuroson orifalarining peshvosi, ulug' so'fiy ayol sifatida e'tirof etiladi. Asardagi "Abu Yazid Bistomiy q.s. anga sano aytibdur va Zunnun Misriy andin savollar qilibdur"[1:479] kabi ma'lumotlar uning Junayd Bag'dodiy "bizlarning oramizda xuddi Jabroil farishtalar orasida bo'lgani kabidir"[3:162] deya ta'riflagan Boyazid Bag'dodiy hamda ma'rifat sultoni Zunnun Misriy kabi oriflar bilan bir safda turgan, hatto ularga ham ma'naviy ustozlik qilgan orifa sifatida namoyon qiladi. Bir kuni Fotima Nishopuriya Zunnun Misriyga hadiya yuboradi. Ammo Zunnun Misriy ayol kishidan hadya qabul qilishni mazallat va nuqson hisoblaydi. Shunda Fotima Nishopuriya Zunnun Misriyga xat yozib, sovg'a berguvchi xoh erkak, xoh ayol bo'lsin ular vositachi, haqiqiy hadiya egasi Alloh ekanligini aytadi. "Nasoyim ul-muhabbat"da Boyazid Bistoniy



“umrumda bir er va bir xotun ko‘rubmen. Ul xotun Fotimai Nisoburiya erdi, hech maqomdin anga xabar qilmadimki, ul xabar anga ayon emas edi” deya uni umrida ko‘rgan yagona ayol deb e’tirof etadi. Shunindek, hech bir maqomdan xabar bermasa ham orifaga ayon bo‘lishi “kashf” va “shuhud” darajasi baland ekanligidandir. Zunnun Misriy “Makkada bir zaifa erdiki, ani Fotima Nisoburiya der erdilar. Qur’on maoniysi fahmida so‘zlar aytur erdiki, manga ajib kelur erdi” deb ta’riflaydi. Fotima Nishopuriyaning Zunnun Misriy kabi ulug‘ Qur’on va hadis ilmi egasi bo‘lgan so‘fiyni Qur’on tafsirida, ma’nolar sharhida ajablantirishi uning kamolot darajasini namoyon etadi. “Zunnun undan nafaqat hayvonot va nabotot olamining, balki barcha tirik va o‘lik mavjudodlarning Allohga salovat aytayotganligini qanday anglab olish sirlarini o‘rgangan”[2:50].

Valiya ayollar boshqa buyuk avliyo shayxlar kabi Qur’on, hadis, tasavvuf ilmini chuqur egallagan. Zunnun Misriy bir kuni bir to‘da bolalar qora kanizak ayolga tosh otayotganini va bu kofir Allohni ko‘raman deb yolg‘on gapirayapti deyishganini ko‘radi. Keyin Zunnun Misriy ayol yoniga borganida uni “Ey Zunnun” deb chorlaydi. Zunnun Misriy hayratlanib, “meni qayerdan taniding?” deb savol beradi. Ayol “Aning do‘stlarining jonlari aning sipohidur va bir-biriga oshnodurlar” deb javob beradi. Bu javob “Ruhlar to‘plangan qo‘shinlardir. Ulardan (azalda) bir-biri bilan tanishganlari (bu dunyoda) bir-biriga bog‘lanadi (do‘stlashadi), tanishmaganlari esa bir-biridan uzoqlashadi” sahih hadisni yodimizga solidi. Ruhlar tana yaratilmasdan oldin bir joyda bo‘lgan, o‘shanda bir-biriga yaqin, ma’naviy darajasi teng bo‘lgan ruhlar bu dunyoda jismoniy tanishuvsiz ham o‘zaro yaqinlik his qiladi. Bu, avvalo, valiyaning karomatidandir, ammo uning zukkolik bilan sahih hadisga ishora tarzda bergan javobi hadis ilmini mukammal egallaganligini ko‘rsatadi. Uning Allohni ko‘ra olishi zohiriy — ko‘z bilan ko‘rish emas, botiniy — qalban tanish va his qilishdir. Ya’ni orifa uchun har bir mavjudodda Allohning qudradi va san’ati namoyondir. Shuningdek, u toshbo‘ronlar va kofir deya ayblashlariga qaramay o‘z e’tiqodida sobit qolib ma’naviy halovatini saqlab qoladi. Insonning kelib chiqishi, ko‘rinishi uning ma’naviy darajasini belgilamaydi. Bu Joriyai Savdo zikridan olishimiz kerak bo‘lgan asosiy o‘gitlardan biri. Chunki tazkirada “qora kanizak” deb atalganiga qaramay u Allohning do‘stlari, ya’ni avliyolar qatoridir.

Zunnun Misriy hayoti davomida ko‘plab avliyo va orifalar ziyoratida bo‘ladi va ulardan saboqlar oladi. Jumladan, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Joriyai Majhula zikrida uning ziyoratiga borgan Zunnun Misriy hamda valiya suhbatini bayon qilingan. Zunnun Misriyga bir kanizak haqida xabar berishadi. U kanizak juda taqvodor, toat ibodatga berilgan, o‘zi bir xaroba cherkovda yashaydi. Zunnun Misriy uning ziyoratiga boradi va ko‘radiki juda zaif, yuzidan uyqusizlik alomatlari zohir.





Shayx nasroniylarning ibodatxonasida yashayotganining sababini so'raydi. Valiya "Ikki dunyoda Alloh taolodan boshqa biror kishini ko'rasanmi?" deb javob qiladi. Chunki orifa uchun butun yer yuzi, ikki dunyo Allohning Mulki va ularning barchasida uning tajallisi mavjud. Shayx yana bu yerda yolg'iz qo'rqmaysanmi? deb so'raydi. Valiya "mendin yiroq bo'l, ul mening ko'nglumni hikmatining latoyifidin va muhabbatidin andoq to'la qilibdur va diydori shavqini manga andoq mustavliy qilibdurki, ko'nglumda hech yer aning g'ayri uchun topmon" deya go'zal javob beradi. Joriyai Majhulaning ko'nglini Alloh o'z hikmatining Latif sirlari, muhabbati bilan shunchalar to'ldirib qo'yganki, Yaratgan diydoriga bo'lgan shavq uni shunday egallab olganki, undan o'zga hech narsaga joy qolmagan. Bunday oqilona, teran javoblardan so'ng Shayx Zunnun nafs yo'lining torligidan chiqaruvchi va haqiqat yo'lini ko'rsatuvchi saboqlar berishini so'raydi. Orifa: "ey javonmard, taqvoni o'zug'ung qil va zuhdni yo'lung va vara'ni borgiring va qo'rqunchlug'lar tariqida suluk qil, to yetkaysen bir eshikkaki, ne hujjob ko'rgaysen anda, ne bavvob. Xozinlarig'a buyurg'ayki, hech ishta sanga nofarmonlig' qilmag'aylar" deya oltinga teng nasihatlar beradi. Zuhd yo'ling, taqvo bu yo'ldagi ozuqang, vara' — shubhali narsalardan qochish uloving bo'lsin. Barcha mashqqatlarga sabr qil. Shunda bir eshikka yetib borasanki, u yerda na parda tutuvchini, na darvozabonni ko'rasan. Alloh xazinalari posbonlariga hech bir ishda senga itoatsizlik qilmasliklarini buyuradi. Valiyaning shayx Zunnunga "Ey yigit" deya yuzlanishidan bu suhbat uning yoshlik chog'larida bo'lib o'tgani anglashiladi. Zunnun Misriy uchun bu saboqlar yashash xaritasi bo'ldi. Uning hayot yo'li bu saboqlarga bir umr amal qilganini ko'rsatadi. Yo'l oxiridagi yetib borajak eshigi Yaratuvchi huzuridagi yuksak martabasidir.

Tazkiradagi ayollar sabr-toqat va matonat ramzi hamdir. O'z nafsini yengib, butun dunyodan va uning lazzatlaridan qalbini uzgan, faqat Allohga bog'langan valiyalar biri Imra'atun Misriyadir. Navoiy u haqidagi ma'lumotlarni mashhur mutasavvuf olim Imom Yofi'iyning tarix kitobidan olinganini qayd qiladi. Imra'atun Misriya o'ttiz yil jazirama va qahratonga qaramay bir joyda muqim yashaydi. O'ttiz yil davomida hech narsa yemaydi va ichmaydi. Muallif bu aql bovar qilmas hodisani Alloh bilguvchidir deya uning irodasiga havola qiladi. Bir insonning o'ttiz yil och qolishi fizologik jihatdan imkonsizdir. Karomatgo'y valiya taqvo, riyozat, ibodatda shunchalar yetukki, unga Alloh unga tabiiy qonuniyatlardan tashqari qobiliyatlarni in'om etgan.

**Xulosa.** Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida "Erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar" qismida ma'naviy kamolot yo'lida jins tushunchasi ikkilamchi ekanligini ilmiy-tasavvufiy isbotlab beradi. Umami Hasson, Fotima



Nishopuriya, Hafsa binti Sirrin, Fotima binti Musanno, Joriyai Savdo, Joriyai Majhula, Joriyai Habashiya kabi orifa ayollarning Sufyon Savriy, Zunnun Misriy, Abu Yazid Bistomiy, Shayx Muhyiddin ibn Arabiy kabi buyuk shayxlarga yo'l ko'rsatgani, g'ayb sirlaridan ogoh etgani, ma'naviy darslar bergani, Qur'on va hadis ilmida lol qoldirgani — valiyalarning nafaqat ijtimoiy hayotda, balki tasavvuf rivojida, ilm olish va ta'lim-tarbiya jarayonlarida muhim o'ringa ega bo'lganligini tasdiqlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Navoiy. A. "Nasoyim ul-muhabbat"/MAT. 17-jild. T.: Fan, 2001 B. 534.
2. Шиммел. А. "Жонон менинг жонимда". Т.: Шарқ, 1999 – Б. 176.
3. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашрёт-матбаа ижодий уйи, 2013.- Б. 162